

## TIL O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

**Yuldasheva Salomat Farxadovna**  
O'zDJTU, Umumiy tilshunoslik  
[ssyuldasheva@gmail.com](mailto:ssyuldasheva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada til o'qitish jarayonida bilish, leksik, grammatik, talaffuz tushunchalarini to'g'ri shakllantirish, talabalar ongida bilimlar sistemasini o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini to'g'ri tarkib toptirish innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismi ekanligi, hozirgi kunda ta'lim jarayonida bilim berishning samarali usullari, o'qituvchi pedagoglar ko'zlagan maqsadlariga erishishning kafolatlangan o'qitish uslublari, talabalarda erkin fikrlash, mustaqil qaror chiqarish ko'nikmasini shakllantiradigan, ularni muammoli vaziyatlarda bilim malakalariga tayanib ish ko'rishga zamin hozirlashga qaratilgan o'qitish usullari pedagogik texnologiyaning eng ilg'or xususiyati ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, metod, texnologiya, nutqiy mashq, o'yinmashq metodi, ijodiy izlanish o'yini.

**Annotation.** In the article, the correct formation of knowledge, lexical, grammatical, and pronunciation concepts in the process of language teaching, the correct content of the ability to self-control the knowledge system in the minds of students is a component of innovative pedagogical technologies, the current effective methods of imparting knowledge in the educational process, teaching methods guaranteed to achieve the goals set by teachers and pedagogues, forming students' free thinking, independent decision-making skills, making them problem-solving it is emphasized that teaching methods aimed at preparing the ground for working in situations based on knowledge skills are the most advanced feature of pedagogical technology.

**Keywords:** innovation, method, technology, speech exercise, game method, creative search game.

**KIRISH.** Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimiga e'tibori va uning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Bugungi kunda o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvchi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyatlari yaratildi. Bugungi kunda ta'limda, xususan, til va adabiyot o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarda keng foydalanilmoqda.

Hozirgi jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonda xorijiy tillarni bilish, ko'nikmalarga ega bo'lish, soha hodimlarni bilimlarni yana kengaytirishga bo'lgan talab tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni nihoyatda oshirib yubormoqda. Axborot texnologiyalari va o'qitishda zamonaviy usullar va turli xil metodlarni qo'llash, ta'lim sohasidagi pedagoglarning kreativ yondashuvlar tilning tez va oson o'rganishda samarali yoram beradi. Turlli usullar orasidan o'quvchi o'ziga mos bo'lgan usulni tanlab muayyan ta'lim dasturini o'zlashtirishi osonlashadi. Shuning uchun pedagog va

o'quvchi xorijiy tillarni o'rgatishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Buning natijasida o'rganishning eng samarali yo'llarni tanlash ko'nikmalari shakllanib boradi. O'qitish shu tildagi ma'lumotlarni yig'ish ular bilan tashishish va o'quvchining mavjud bilimlarini tekshirishga asoslanadi. Zamon kun sayin rivojlanib borgan sari sohada yangiliklar ko'payib bormoqda. Hozirgi kunda ta'limning sifat va samaradorligini oshirish sohalar rivoji va taraqqiyotimiz, rivojlanishimiz uchun muhim bir bosqichdir. Hozirgi ilg'or yoshlarga zerikarli auditoryalarda o'tirib, tillarni o'rganishdagi uzundan uzun qoidalarni tinglash, misollarni rasmlarda ko'rish qiziq emas. Negaki, chalg'ituvchi dunyoda o'quvchini o'ziga jalb qiluvchi omillar yetarli darajada bularga misol qilib, har xil ijtimoy tarmoqlardagi vaqtni behudaga sarflovchi saviyasiz videolarni misol qilishimiz mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Hozir zamonaviy va kreativ jihazlangan (lingafon, video roliklar uchun maxsus monitor va ovoz kuchaytirgich bilan ta'minlangan) auditoriyalarda tillarni o'rganish yoshlar uchun avvalgiga qaraganda qiziqroq. O'quvchining talabidan kelib chiqib pedagog til o'rganishda ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va to'g'ri foydalanishga undashi, o'quvchiga darsdan tashqari til o'rganish motivatsiyalar berishi lozim. Hozirda pedagoglarning ta'limda mnemonika usullaridan keng qo'llayotgani eng samarali yechim bo'lmoqda. Ta'limda mnemonikadan foydalanish yurtimizga endigina kirib kelgan bo'lsada, Yevropa mamlakatlarida anchadan beri qo'llanilib kelayotgan soha hisoblanadi va uning samarali ekan o'z tasdig'ini topgan. Mnemonika (yunoncha mnemonika-eslab qolish san'ati) sun'iy assotsatsiyalar hosil qilish yo'li bilan eslab qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Tilni o'zlashtirishda o'quvchilar har xil sun'iy usullarni qo'llashga o'rganganligi sababli samarasiz materiallardan foydalanishadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012 yil 10 dekabr PQ1875 sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida:" belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida chet tillarni o'qitishning zamonaviy, texnologiyalarini, usullarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish masalalari dolzarb bo'lib turibdi. Chet tilini o'qitish uchun o'quv-metodik adabiyotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda o'quvchilarni rivojlanishini e'tiborga olgan holda maxsus o'quv dasturlar yaratish, ta'lim tizimini axborot va ilmiy-metodik ta'minlash, bazisli o'quv rejalarini va na'munali kurs dasturlarini ishlab chiqish, o'quv adabiyotlarni chop etishni tashkillashtirish, o'quv qo'llanmalar va darsliklarni turli ko'rinishdagi taqdimotlarni axborot texnologiyalari asosida virtual resurslar ko'rinishida yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish, ta'lim muassalarida qo'llaniladigan metodikalarni pedagogik texnologiyalardan foydalanib mukammallashtirish va masofali ta'lim texnologiyalarini yo'lga qo'yish kabi masalalarni yechishni talab qiladi. Chet tilini (ingliz tilini) o'qitishda 5 yoshgacha bo'lgan bolalardan boshlab maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, litseylar, oliy ta'limni qamrab oladigan o'qitish tizimini yaratish

maqsadga muvofiq. Ushbu o'qitish tizimini yaratishdan maqsad farzand dunyoga kelgandan boshlab uning ulg'ayib borish davri mobaynida ta'lim muassasalarining turli bo'g'inlarda bilim olishi ta'minlanadi. Ingliz tilini o'qitish va o'rganishda informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan (IKT) foydalanib o'quv-metodik adabiyotlar tizimini yaratish va o'quv jarayoniga qo'llash tamoyillarini ishlab chiqish va uning asosida dars jarayonini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Albatta, biz bilamizki yosh avlodni tarbiyalashda har tomonlama yetuk qilishda astoyidil e'tibor talab qiladi. Chunki ta'lim berishda hozirda qo'llanilayotgan metodlar yoki multimedia vositalari orqali ularga yoritib berilayotgan mavzular so'zimiz dalilidir. Hozirgi paytda maktabgacha ta'lim muassasalarida (MTM) ingliz tilini o'qitishni tashkil qilish masalasi yotadi. 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni ingliz tilini o'qitishda IKT asosida alifbodagi harflarni taqdimotlar ko'rinishida tashkil etishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan bir qatorda 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga berilayotgan taqdimotlarni mantiqiy ravishda, uzluksiz va uzviy davom ettirib, 1-sinfidagi bolalarga ingliz tili alifbosini o'qitishning IKT asosida tashkil qilish vositalarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki hozirgi davrda maktabgacha bo'lgan yosh avlod uchun vizual materiallar orqali qabul qilish qobiliyati kuchliligi fanda ham amaliyotda ham tasdiqlab berilgan.

Yoshlarga zamonaviy bilim berish va ularda amaliy ko'nikmani rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rnini beqiyos. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashda zamonaviy kommunikativ texnologiyalari keng imkoniyatlar yaratmoqda. Akademik litseylarning oliy ta'lim muassasalari qoshida tashkil etilgani ta'lim samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etamoqda. Litseylar universitet va institutlar bilan o'quv-uslubiy, tashkiliy masalalarda uzviy bog'langan. O'quv dasturlarining tabaqalashtirilgan variantlarini ishlab chiqish, zamonaviy ilg'or va innovatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv-uslubiy majmualar yaratish va ekspertizadan o'tkazishda oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tajribasidan keng foydalanilmoqda. O'quv jarayoniga texnologiyani kiritishga urinishlar o'tgan asr davomida to'xtovsiz bo'lgan. O'tgan asrning 50-yillarigacha ular bir texnik muhit – an'anali ta'limning avtomatlashtirilgan vositalar jamlamasini yaratishga qaratilgan. 50-yillarda esa aynan o'quv jarayonini tashkil etishda yangicha texnologik yondashish paydo bo'ldi. Birinchi yo'nalish ham yangi informatsion texnologiyalarni o'zlashtirish yo'lida rivojlanib bormoqda. Ikkala yo'nalish tobora bir-biriga kirishib, ta'lim nazariyasini yangilamoqda. Aytish joizki, hozirgi kunda ta'lim texnologiyasi tushunchasini keng ma'noda tushunish mumkin, ham pedagogik fan sohasi sifatida, ham ma'lum o'qitish texnologiyasi sifatida ham zamonaviy elektron texnologiyalar sifatida. Chunki hozirda elektron texnologiyalar, elektron ta'lim tushunchalari nafaqat jamiyatda balki ta'limda ham o'z aksini topmoqda. Butun dunyoda elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va undan foydalanish ommalashib ketdi. Sababi bunday ma'lumotlar bilan ishlash qog'ozli ma'lumotlarga qaraganda bir qancha afzalliklarga egadir. Ta'limda ingliz tilini o'rgatishda "Arra" o'zaro o'qitish texnikasi, "Birgalikda o'qiyamiz", "O'ylang, juftlikda ishleng – fikr almashing" birgalikda o'qish texnikasi, "Inster, Toifali, Konseptual, BBB, SWOT-tahlil" jadvallari, "Klaster, Kaskad, Nilufar guli, Piramida, Baliq skleti, Nima uchun?", kabi sxemalardan foydalanish o'quvchilar bilimini oshiradi va mustahkamlaydi (Носирова, М.О., 2022). Bunday interfaol metodlaridan foydalanish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish dars sifatini oshiradi. Interfaol metodlar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir

o'quvchining faolligiga asoslanadi. Bu metodlardan foydalanilganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Interfaol usul qo'llanganda o'quvchilar o'qitilmaydi, balki ularning o'zlari o'qituvchi bilan birgalikda muayyan yo'nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o'zlashtiradi. Bu hol bolalarga erkin fikrlash, mustaqil ishlashga rag'bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta'lim jarayoni qatnashchilari o'zaro bemalol tortishadilar, o'quv materialini buyurilganiday emas, balki o'zlari xohlaganday erkin o'zlashtiradilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, interfaol metodlarning eng asosiy belgilaridan biri kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashlaridir. O'quv topshirig'ini alohida bir o'quvchiga emas, balki barcha kichik guruh a'zolariga berilishi o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularni tashabbuskorligini oshiradi. Interfaol usullar, ta'limning har qanday ilg'or pedagogik metodlari kabi kamroq vaqt, kuch va resurs sarflab, ko'proq didaktik samaraga erishishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Til o'qitish jarayonida bilish, leksik, grammatik, talaffuz tushunchalarini to'g'ri shakllantirish, talabalar ongida bilimlar sistemasini o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini to'g'ri tarkib toptirish innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismidir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida eng samarali, o'qituvchi pedagoglar ko'zlagan maqsadlariga erishishning kafolatlangan o'qitish uslublari, talabalarda erkin fikrlash, mustaqil qaror chiqarish ko'nikmasini shakllantiradigan, ularni muammolarini yechishlari, turli vaziyatlardan qiynalmasdan chiqib ketishlari uchun zamin hozirlashga qodir bunday o'qitish usullari pedagogik texnologiyaning eng ilg'or xususiyatidir. Xususan, tilni o'qitishda bir qancha uslublarni qo'llagan holda amalga oshirish mumkin. Tilni o'qitishning natijalari birinchi navbatda, mashqlar sistemasi orqali aniqlanadi, chunki til o'rganishdagi amaliy maqsad ya'ni, nutq faoliyatining barcha turlarini egallash mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Mashq deganda, ma'lum bir faoliyatni egallashga qaratilgan yoki shu faoliyatni o'quv jarayonlarida takomillashtirishga qaratilgan alohida yoki ketma-ket bajariladigan operatsiyalar yoki ko'nikmalarga adekvat ya'ni, mos bo'lishi kerak. Metodik adabiyotlarda mashqlarning turlicha klassifikatsiyalarini ko'rishimiz mumkin. Bu turlicha prinsiplarga asoslanadi.

**XULOSA.** Rivojlanayotgan asrda biror bir ilm o'rganishda shu jumladan xorijiy tillarni o'rganishda ham eng avvalo o'qituvchi-pedagog zamon bilan hamnafas tarzda faoliyat olib borishi kerak. Aynan yangi yondashuvlarni biz malakali va o'z ustida ishlaydigan ustozlardan o'rganamiz.

Zamonaviy til o'qitish yondashuvlari davom etayotgan globalizatsiya jarayonida hayotiy ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarning qiziqishini oshirish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashmoqda. O'qituvchilar zamonaviy metodlarni, innovatsion texnologiyalarni va samara beruvchi yondashuvlarni qo'llab, o'quvchilarni tilni o'rganishga rag'batlantirishlari zarur. Ushbu maqolada ko'rsatilgan yondashuvlar va takliflar til o'qituvchilari uchun foydali bo'lishi mumkin. Yana bir bor qayd etish joizki, har bir yondashuv va metod o'ziga xos sharoitlarda samaralidir, shuning uchun ularni mustaqil ravishda moslashtirish va sinab ko'rish kerakdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Anarbekova, G.A. (2021). Og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari. *Ekonomika i sotsium*, 5(84), 55-75.

2. Anarbekova, G.A., Duysabayeva, D.U. (2021). Problems of formation of language culture in school students. *O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari*, 1(1), 250-253.

3. Mehri, S. (2022). The problem of social adaptation of migrant adolescent children. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 108-113.

4. Носирова, М. О. (2022). Пословичная языковая картина мира как объект аксиологических исследований в языкознании. Янги Узбекистан: инновация, фан ва таълим, 35.

5. Saipova, M.V., Ergasheva, G. (2022). Maktabgacha ta'limda psixologik xizmatining ustuvor vazifalari. O'zbekiston ilmiy-amaliy konferensiya, 1(1), 15-20.

6. Saipova, M.V. (2022). Migrantlarning o'smir yoshdagi farzandlarida ijtimoiy moslashuv muammosi. Bola va zamon, 1(2), 12-13.

7. Саипова, М.В. (2022). Социально-психологические детерминанты социализации детей трудовых мигрантов. Вестник интегративной психологии, 2(24), 330-333.

8. Saipova, M.V. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. Uzluksiz ta'lim, 1(3), 83-86.